

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-280-0

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 96 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 11-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-280-0

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

<i>Туляганов Фатхулло, Арифджанов Алишер</i> АНАЛИЗ ОСНОВНЫХ ПРИНЦИПОВ СОВРЕМЕННОГО МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА	5-10
<i>Мамарасулов Хасан, Арифжанов Алишер, Туляганов Фатхулло</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО ОБЕСПЕЧЕНИЮ ЕДИНСТВА ИЗМЕРЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	11-18
<i>Agzamov Mirxosil, Nosirov Xasanbek, Xikmatullayev Rustam, Abdusalomov Zafar, Ismoilov Muxammadismoil</i> PAHTA HOM-ASHYOSINI QAYTA ISHLASH JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN TEXNOLOGIK MASHINALARNING TAHLILI	19-23
<i>Muhitdinova Umida, Turdibayeva Dildora, Xalilov Oybek, Muminxodjayev Sunnatilla</i> SIRT G'ADIR-BUDURLIGI NAMUNALARI: TURLARI, QO'LLANILISHI HAMDA ASOSIY PARAMETRLARI	24-29
<i>Muminxodjayev Sunnatilla, Hakimova Nargiza, Rakhimova Sevara, Muhitdinova Umida</i> KO'CHMA LABORATORIYA YARATISH: AHAMIYATI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI	30-32

TARIX FANLARI

<i>Raimjonov Ziyoxiddin</i> AVESTO QADRIYATLARINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	33-35
<i>Mamajanov Azizbek</i> ANDIJON DENGIZI YOXUD ANDIJON SUV OMBORI TARIXI	36-39
<i>Baxranov Sherzod</i> SOVET ITTFOQI DAVRIDA BOSHOQLI EKNLARNI TADQIQ ETISH TARIXIDAN.....	40-43
<i>Meliboyeva Munisabonu</i> MILODDAN AVVALGI II-I ASRLARDA IPAK YO'LI BO'YLAB ELITA QABR INSHOOTLARIDA ME'MORIY VA MADANIY SINTEZ	44-47

IQTISODIYOT FANLARI

<i>Hakimova Yulduz</i> TO'G'RIDAN – TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGIDA USTUVORLIKKA EGA MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA MAMLAKATIMIZDA BU YO'NALISHLARDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR	48-53
---	-------

FALSAFA FANLARI

<i>Abdulhayev Azizbek</i> HARBIY XIZMATCHILARNING AXLOQIY ONGINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY G'OYANING RO'LI	54-58
<i>Xo'jayev Davron</i> O'RTA ASRLAR SHARQ RENESSANSIDA GUMANIZIM FALSAFASINING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI	59-63

FILOLOGIYA FANLARI

<i>Sadullayeva Muxlisa</i> ADABIYOTDA BADIY KONFLIKT SHAKLLARI.....	64-68
--	-------

<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA RUHIY EVRILISH.....	69-72
Мамарасулов Умиджон ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ОРИГИНАЛА ПРИ ПЕРЕВОДЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНО-ВЫРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ НА ПРИМЕРЕ РОМАНА Э.М. РЕМАРКА «НА ОБРАТНОМ ПУТИ»	73-81
Мамарасулов Умиджон ТИПОЛОГИЯ ПЕРЕВОДЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ХУДОЖЕСТВЕННОСТЬ НА ПРИМЕРЕ РОМАНА Э.М. РЕМАРКА «НА ОБРАТНОМ ПУТИ»	82-89
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jo'rayeva Madinaxon</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ILM-FANNI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH BO'YICHA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR	90-91
ARXITEKTURA FANLARI	
<i>Mustafayeva Madina</i> ZAMONAVIY ARXITEKTURADAGI ERGONOMIK DIZAYNNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	92-95

TARIX FANLARI

AVESTO QADRIYATLARINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Raimjonov Ziyoxiddin Raxmonjon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. "Avesto" kitobida inson huquq va erkinliklari, millatlararo munosabatlarni o'zaro hurmat va ishonch tamoyillari negizida barpo etish g'oyalari muhim o'rin tutadi, zo'ravonlik va adolatsizlik rad etiladi. Shu bilan birga, tarixiy unsurlarning asl mazmunini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Avesto, zardushtiylik, Ahuramazda, ezgulik va yovuzlik, tarixiy unsurlar, mazdaviylik.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF AVESTA VALUES TODAY

Raimjonov Ziyokhiddin Rakhmonjon oglu

Master's student of Andijan State Pedagogical Institute

Annotation. In the book "Avesta", the ideas of human rights and freedoms, building interethnic relations on the principles of mutual respect and trust play an important role, violence and injustice are rejected. At the same time, it serves to illuminate the true meaning of historical elements.

Key words: Avesta, Zoroastrianism, Ahuramazda, goodness and evil, historical elements, Mazdaism.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda tarix fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechish, yangi yondashuvlar bilan bog'liq o'zgarishlarga yuz tutdi. Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O'zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish hamda yangi ilmiy yo'nalishlarni o'zlashtirish kabi vazifalarni yuklamogda. Qarorda Jamoatchilik kengashi oldiga O'zbekistonning eng yangi tarixini tizimli, haqqoniy va xolis tarzda o'rganishni tashkil etish, yangi avlod ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yaratish hamda mamlakatimizning dunyodagi o'rni va rolini ko'rsatishga qaratilgan qator vazifalar qo'yilgan. Mazkur hujjatda ko'rsatilgan vazifalarni bir-birini to'ldiruvchi ikki yo'l orqali ro'yobga chiqarish lozim. Birinchi yo'l – yangi avlod ilmiy va o'quv adabiyotlarini yaratish. Ikkinchi yo'l – mavjud bilimlarni yoshlarga targ'ib etish va o'qitish.

O'zbekistonning eng yangi tarixi haqida so'z yuritilganda, biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o'tgan tarixiy yo'li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O'zbek jamiyatida qadimgi davrlardan beri ayrim demokratiya unsurlari: o'zini o'zi boshqarishning jamoa shakli, mahalla yig'inlari, oqsoqollar kengashlari va xalq diplomatiyasi mavjud edi. Biroq hozirgi kunda ushbu institutlar tomonidan an'anaviy funksiyalar bajarilishining o'zi bilan qanoatlanib bo'lmaydi. Biz ularning faoliyatini hozirgi davr talablariga mos yangi mazmun bilan to'ldirishimiz maqsadga muvofiqdir. [4; 45-48 b.]

«Avesto» - qadimgi tariximizni o'rganishda noyob manba. O'z mazmuni, mohiyatiga ko'ra yakkaxudolik, insonparvarlik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, yurtparvarlik g'oyalarini

tarannum etib, odamzod ahlini bunyodkorlik, yaratuvchilikka undagan muqaddas «Avesto» olis tariximizning asl durdona asarlari sirasiga kiradi'. «Avesto» kitobi miloddan avvalgi so'nggi ming yillik boshtari va o'rtalarida hududimizda yashagan qadimgi xalqlarning o'ziga xos turmush tarzi, xo'jalik mashg'uloti, ijtimoiy-madaniy hayoti, urf-odatlar-yu ma-rosimlari haqida ma'lumot beruvchi muhim tarixiy manbadir.

"Avesto" O'rta Osiyoning tarixan ajralmas qismi bo'lgan Turon-zamin hududlarida shakllangan eng qadimiy din - zardushtiylikning muqaddas kitobidir. Unda O'zbek, tojik, turkman, ozarbayjon, fors, afg'on va boshqa xalqlarning ibtidoiy va qadimiy ilohiy tasavvurlari, koinot va erda dunyoning yaratilishi bilan bog'liq tushunchalar, afsona va rivoyatlar, falsafiy-ahloqiy qarashlar o'z aksini topgan. Mazdaviylik dini-Zardushtiylik haqida toki Sosoniylar uni davlat dini deb e'lon qilmaguncha hech qanday ma'lumot yo'q edi . U ezgulik xudosi Axuramazda bilan odamlar o'rtasidagi vakil sifatida maydonga chiqdi.

Ma'lumki, diyorimiz azaldan ilm-ma'rifat, bunyodkorlik o'chog'i bo'lib kelgan. Yurtimizdan yetishib chiqqan ko'plab allomalar, buyuk zotlar nainki xalqimiz, balki butun insoniyat ilm-fani, madaniyat va san'ati rivojiga daxldor ulkan ma'naviy, moddiy meros qoldirdi. Ularni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bus-butun yetkazish dolzarb masalalardan biri. Yangi O'zbekistonning konstitutsiyaviy islohotlarini o'tmish an'alaridan ajratib bo'lmaydi, chunki u millionlab odamlarning kundalik hayotini aks etadi hamda bir necha avlodlar uchun maqsadlar, vazifalar va xulq-atvor tamoyillarini belgilaydi. Qadimgi bobokalonlarimiz ko'ziga to'tiyo qilgan "Avesto" muqaddas kitobi faqat diniy qo'shiq, hikoyat va rivoyatlardan iborat bo'libgina qolmasdan, balki tabiiy fanlar, xususan, tabobat, ta'lim – tarbiya masalalarini ham o'z ichiga oladigan ilmiy manbadir. Zardo'shtiylik dinining muqaddas bayramlaridan biri Navro'zdir. Navro'z Markaziy Osiyo va forsiy xalqlarning yangi yilni nishonlashga bag'ishlangan katta bayramidir. Bahorda ya'ni 21 mart kuni koinotdagi barcha tirik jon, insoniyat, o'simlik va hayvonat dunyosi qayta jonlanadi. Insoniyat tabiyatning oliy mahsuli sifatida bu bayramni zo'r shodiyona bilan nishonlagan va hozirda ham nishonlab kelinmoqda. Mamlakatimizda Navro'z – bahor bayrami, yangi kun, tabiatni uyg'onish bayrami sifatida keng nishonladi. Zardo'shtiylik dinining afzal tomonlaridan biri shu ediki, ushbu dinda hukmdorlar saltanatini mustahkamlovchi rasmiy aqidalar bilan birga, insonni o'z hayotining, o'z taqdirining yaratuvchisi sifatida ulug'lovchi insonparvarlik g'oyalari ham qaror topgandir. "Avesto" ajdodlarimizning diniy falsafiy qarashlari va tushunchalarini o'zida mujassam etgan asargina emas, ayni vaqtda u bebaho tarixiy manba sifatida ham qimmatlidir. "Avesto" Markaziy Osiyo, umuman sharq xalqlarining eng qadimgi tarixi, turmush tarzi, urf – odati, ma'naviy madaniyati, ilm fani va boshqa sohalarga doir juda boy ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Shu boisdan jahon ilmiy jamoatchiligi uni bebaho tarixiy meros sifatida qadrlamoqda. "Avesto" – jahon madaniyatining, jumladan, Markaziy Osiyo va Eron xalqlari tarixining qadimgi noyob yodgorligidir. Zardushtlik e'tiqodiga amal qiluvchilarning muqaddas kitobi sifatida Yagona Tangriga topinish shu ta'limotdan boshlangan. Bu kitob tarkibi, ifoda uslubi va timsollar tizimi bilan adabiy manbalarga yaqin turadi. "Avesto"da tilga olingan joy nomlari (Varaxsha, Vaxsh)dan kelib chiqib, uning Amudaryo sohillarida yaratilgani aniqlangan. Shu asosda uning vatani Xorazmdir degan qarash mavjud. [5; 131-132 b].

Aytish kerakki, madaniyat rivoji, ilmu-fan taraqqiyoti, shuningdek tarixiy-madaniy merosni asrash masalalariga tegishli bo'lgan qonun hujjatlarini hayotga tadbiq etish faqat

davlat organining vazifasi bo'lib qolmoqda. Vaholanki, mamlakat qonunchiligiga doir xuquqiy xujjatlar davlat boshqaruvining barcha pog'onalari, xususan, mahalliy kengashlar va hokimliklar uchun ham bevosita taalluqlidir. Shunga ko'ra, moddiy madaniy merosni saqlash va ta'mirlashga oid muammolar hamda sohaga oid qonun hujjatlarining joylarda bajarilishini nazorat qilish hududiy kengash deputatlari tomonidan viloyat, shahar va tuman kengashlarining sessiyalarida o'rganilishi va muhokamalardan o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Zero, ulkan maqsadlar sari qadam bosib yangilanayotgan mamlakatimiz dunyo hamjamiyati oldida o'zining munosib o'rnini egallashida, avvalo, bizga nasib etgan tabarruk madaniy merosning qadrini yuksakka ko'tarishdek sharaflı ishni umumhalq ishi, va eng muhimi, fuqarolik burchi deb idrok etmog'imiz shart.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishimiz kerakki, Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi bo'lmish —Avesto|| tashuvchi g'oyalar tashviqi hech qachon o'z ilmiy-amaliy, tarixiy va insoniy ahamiyatini yo'qotmaydi. —Avesto|| mingyilliklar davomida o'zida ezgu g'oyalarni tashuvchi manba sifatida bizgacha yetib keldi va kelajak avlodga ham o'tajak. Bizning vazifamiz esa undagi ezgulik g'oyalari tashviqini amalda tatbiq etishni kengaytirish va kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev.Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatıyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent, 2017, "O'ZBEKISTON". 14-22 b.
2. Homidov H. "Avesto" fayzlari, -Toshkent, 2021, "ABDULLA QODIRIY". 45-48 b.
3. Karimova D. Zardushtiylikda nikoh va oila masalalari. -Toshkent, 2022, "G'AFUR G'ULOM", 131-132 b.
4. Homidov H. "Avesto" fayzlari, -Toshkent, 2021, "ABDULLA QODIRIY". [45-48 b.].
5. Karimova D. Zardushtiylikda nikoh va oila masalalari. -Toshkent, 2022, "G'AFUR G'ULOM", [131-132 b.].

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

V RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, 11-avgust

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. V Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 96 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 11-avgust

ISBN 978-9910-09-280-0

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.